

ZEBO G'ANIYEVA: IKKINCHI JAHON URUSHI FRONTIDAGI O'ZBEK AYOL JASORATI TIMSOLI

*Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti
Namangan filiali Tarix yo'nalishi 4-bosqich
talabasi Qutbiddinova Nasiba Sayfiddin qizi*

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Ikkinchi Jahon urushida fronda xizmat qilgan ham O'zbek ham Ozarbayjon millatiga mansub harbiy xizmatchi bo'lgan mard jasur qiz Zebo G'aniyevaning hayoti va faoliyati keng yoritilgan. Zebo G'aniyevaning urush davridagi fronda razvedkachi, snayber, radiooperator sifatidagi faoliyati va uning shaxsiy hayoti, ayol bo'la turib ko'rsatgan matonati yoritilgan. Zebo G'aniyeva ota-onasi tirik bo'la turib yetim qolganligi, bunday vaziyatda ruhan cho'kib qolmasdan o'z ustida ishlab teatr san'ati, tarix, sharqshunoslik, fanlari bo'yicha professor darajasiga ham erishadi. Davlat tomonidan xizmatlari uchun tantanali rag'batlantirilib mukofotlarga ega bo'ladi.

Kalit so'zi: Zebo G'aniyeva, Pasha Ganiyev, ikkinchi jahon urushi, sovuq urush, snayper, razvetchi, radiooperator, repressiya, xoreografiya, A.V.Lunacharskiy, frond, qizil maydon, kommunistik diviziya, ofitser, SSSR, institute, sovet, pulemyot.

Dunyoda aql, go'zallik va jasorat bilan mukofotlangan va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan ayollar bor. Ular ko'plab erkaklar orzu qilgandek mardlikga ega, lekin ular har qanday vaziyatda chin ayol bo'lib qolishni uddalaydilar va ular rahimdil, mehribon, matonatli, va afsonaviy go'zal. Bunday ser qirra ayollar orasida albatta Zebo G'aniyeva alohida o'z o'rniga ega. Zebo G'aniyeva "Sovuq urush" davrida 17 yoshli latofatli qiz bo'lib uch xil snayper, razvetka va radiooperator lavozimida ishlagan.

Zebo G'aniyeva 1923-yil 20-avgustda O'zbekistonning Guliston shaxrida ayrim manbalarga ko'ra Ozarbayjonning Shamaxi shaxrida tavallud topgan. Otasi Ozarbayjonlik, Onasi esa o'zbek Zebo G'aniyeva 14 yoshida ota onasi tirik bo'lsada ulardan yetim qoladi. 1937 yilda onasi repressiyaga uchraydi, otasi esa Pasha Ganiyev qizining hayotini saqlab qolish uchun uni tashlab ketishga majbur bo'ladi. Shu yili Zebo G'aniyeva Toshkentga kelib O'zbekistonning filarmoniyasining xoreografiya bo'limiga o'qishga kiradi.¹ 1940-yilda Zebo Moskvaga ko'chib o'tadi va u yerda Rossiya davlat teatr san'ati institutining aktyorlik bo'limiga o'qishiga kiradi. A.V.Lunacharskiy nomidagi Moskva davlat teatr san'ati institutining talabasi bo'lganida, urushning dastlabki kunlarida u ham yuz minglab sovet talabalari singari frontga ko'ngilli ravishda borishga qaror qiladi. G'aniyeva qisqa muddatli otish

¹ > Буланова, О. "Зиба Ганиева из Шемахи: история женщины-легенды." Письма о Ташкенте, 18 сент. 2022, <https://mytashkent.uz/2022/09/18/ziba-ganieva-iz-shemahi-istoriya-zhenshhiny-legendy/>.

kurslariga yuborilib, u yerda pulemyotdan foydalanish va merganlik miltig'idan otishni o'rganadi va razvetkachilik san'ati bilan ham yaqindan tanishadi. 1941-yil 7-noyabrda 3-Moskva kommunistik diviziya tarkibida Qizil maydondagi paradda qatnashadi. Bundan so'ng Zebo G'aniyeva darhol vatanni himoya qilish uchun urushga yuboriladi. Leningrad va Shimoliy-g'arbiy frontlarda jang qiladi. Radiooperatori sifatida u razvetka guruhlarini tarkibida frond chizig'ini 16 marta kesib o'tadi.² 1942-yil yanvarda 3-Moskva kommunistik otishma diviziyasi negizida 130-o'qchi diviziyasi tuziladi. 1942-yil 12-apreldan 23-maygacha Leningrad viloyatining Chernoye, Ojetsi, Lunevo va Diagilevo qishloqlari hududida faoliyat yuritgan ushbu diviziyaning 15-Elkov razvetka batalyonining snayperi Zebo G'aniyeva 20 nemisni, shu jumladan ikki ofitserni o'ldirdi. 151-alohida motorli miltiq razvetkasining snayperiga aylandi. 1942-yil 23-mayda Zebo G'aniyeva Leningrad viloyatining Molvotitskiy tumanidagi Bolshoe Vragovo qishlog'i uchun bo'lgan jangda ishtirok etib o'zining ko'rsatgan jasorati va qahramonligi uchun Shimoliy-g'arbiy frontda qo'shinlarining 1942-yil 16-iyulidagi 0869-son buyrug'i bilan snayper Zebo G'aniyeva "Qizil Bayroq" ordeni bilan taqdirlanadi. Zebo G'aniyeva ushbu jangda og'ir jarohatlangani sababli bir muncha vaqt davolanadi va uni Mariya Fedorovna 11 oy davomida davolab oyoqqa turgizadi. Mariya Fedorovna Zebo G'aniyevani tuzalganidan xursand bo'lib ko'zida yosh bilan "Barcha oddiy ayollar 9 oy bolani ko'tarib yurishadi, lekin men sizni 11 oy davomida ko'tarib yurdim" deb aytadi. V.S.Murmantsevaning "Sovet ayollari Ulug' Vatan urushida" kitobiga ko'ra, u qisqa vaqt ichida 21 ta fashistni o'ldirgan. Rassom Toir Salahovning xotiralaridan suhbatlarning birida G'aniyeva "Toir, men bir yuz yigirma to'qqista fashistni o'ldirdim" degan. Zebo G'aniyevaning jasorati haqidagi gap so'zlar butun Sovet mamlakatiga tarqala boshlaydi. Gitler qo'shinlari Kavkaz tomon harakat qilganda, u onalarga, opa-singillarga va do'stlarga o'zlarining Vatanini himoya qilishga chaqiradi.³ 1942-yilda Rabotnitsa jurnalining 19-20-sonlarida uning murojaati e'lon qilindi. "Dushmanlar bizning ajoyib, ulug'vor Kavkazimizga bostirib kirishadi. Tog'lik ayollar: kavkazlar, chechenlar, kabardin-balgarlar, ozarbayjonlar, gruzinlar, armanlar – barcha Kavkaz va Kavkaz osmoni ostida yashaydiganlar, dushman qo'shinlariga qarshi jang qilayotgan erlaringizga va birodarlaringizga yordan bering! Yog', paxtasi, gullagan bog'lar mevasi – inson qo'li yaratgan hamma narsa – bilan dushmanni yengish mumkin! Biz buyuk Oktyabr Sotsialistik inqilobining yutuqlarini himoya qilamiz, biz dushmandan erkinlik, qadr-qimmat sha'nimizni himoya qilamiz. Biz uy joyimizni, farzandlarimizni dushmanga bermaymiz! Dushmanlarga o'lim!" degan so'zlari o'sha xalqlarning ayollari uchun katta kuch bera olgan.⁴ Zebo

² Ganijeva Zibo Pasha gizi // Azerbaydjanskaya sovetkaya ensiklopediya / Pod red. Dj. Kulieva. — 1979. — T. III. — S. 137.

³ <http://airaces.narod.ru/snipers/w1/ganieva.htm>

⁴ Belie stranitsi Moskvi: Ziba Pasha kizi Ganieva Arxivnaya kopia ot 12 marta 2016 na Wayback Machine

G'aniyeva urushdan keyingi davrda ya'ni 1945-yilda Nabi G'aniyevning "Tohir va Zuhra" filimida ro'l ijro etadi. G'labadan keyin Zebo G'aniyeva o'sha paytda SSSR ning Turkiyadagi elchixonasining vaqtinchalik ishlar vakili bo'lgan Ozarbayjon diplomati Tofiq Qodirov bilan oila quradi. Ular keyinchalik Moskvada yashay boshlaydi. Ularning Moskva shaxrida tug'ilgan Marad Qodirov ismli o'g'li bor. Zebo G'aniyeva to'xtab qolmasdan o'zining ilmiy bilimlarini ham mustahkamlab borgan. U tarix fanini o'rgangan, sharqshunoslik fanlari doktori, professor, filologiya fanlari nomzodi bo'lgan. 1955-1956- yillarda Boku partiya maktabining til va adabiyot kafedrasini mudiri bo'lgan. 1956-yildan boshlab SSSR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi sifatida faoliyat yuritgan. 1985-yilda ikkinchi jahon urushidagi G'alabani 40 yilligi sharafiga bilan birinchi darajali Vatan urushi ordeni bilan taqdirlangan. Zebo G'aniyeva o'z vatani oldida mard vatanparvar Vatan dushmanlariga qarshi mardonavor kurashgan matonatli snayper ayoldir.

XULOSA

Qaysi millat vakili bo'lmasin o'z yurtining shon shuxrati uchun o'z burchini astoydil chin qalbdan bajaradigan ayol qizlarimiz o'z vatani ozodligi uchun kurashganligi bu sharafdir. Zebo G'aniyeva nafaqat o'zbek xalqining SSSR xalqining ham sharafligi ayolidir. O'z taqdiri Vatan himoyasiga bag'ishlangan kuch, go'zallik va sadoqat timsolida aks etgan ayoldir. U yoshligida boshidan og'ir sinovlarni o'tkazgiligiga qaramasdan mardlik va irodasini yo'qotmadi. Urush yillarida u razvetkachi, snayper, radiooperator sifatida frontning eng xavfli nuqtalarida xizmat qilib, o'z hayotini xavf ostiga qo'yadi. Zebo G'aniyevaning bunday qahramonligidan haqiqiy jasorat bu qo'rquvni yengish va burchni ado etishdaligini ko'rishimiz mumkin. Ayol kishining yuragidagi mehr ham jang maydonida kuchga aylanadi. Go'zallik faqat tashqi emas, balki insonning ruhiy pokligi va vafodorligini ham ko'rsata bilgan mard O'zbek ayolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Буланова, О. "Зиба Ганиева из Шемахи: история женщины-легенды." Письма о Ташкенте, 18 сент. 2022, <https://mytashkent.uz/2022/09/18/ziba-ganieva-iz-shemahi-istoriya-zhenshhiny-legendy/>.
2. Gəniyeva Zibo Pasha gizi // Azerbaydjanskaya sovetskaya ensiklopediya / Pod red. Dj. Kulieva. — 1979. — T. III. — S. 137.
3. <http://airaces.narod.ru/snipers/w1/ganieva.htm>
4. Belie stranitsi Moskvi: Ziba Pasha kizi Ganieva Arxivnaya kopiya ot 12 marta 2016 na Wayback Machine